



**JAMIYATDA YOSHLARNING DEVIANT XULQ-ATVORGA OG'ISH
SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHDA ZARUR PSIXOLOGIK
KO'RSATMALAR.**

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi vaqtda yoshlarning deviant xulq-atvoriga og'ish holatlari ko'p kuzatilayotganligi, avvalo deviatsiyaning nima ekanligi va uni bolalar hulqiga ta'sir etishi natijasida jamiyatda qanday yoshlar voyaga yetishi to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqamiz. Shu bilan birga ushbu muammoni yuzaga keltiruvchi sabab va oqibatlari, uni bartaraf etishda ko'rilayotgan psixologik ko'rsatmalar va bu muammo qanday fanlar doirasida o'rganilishi kerakligi to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: deviant xulq-atvor, ijtimoiy muhit, tadqiqot obyekti, jamiyat, ijtimoiy nazorat, me'yor, anomiya, suitsid, nazorat instituti, psixopatologiya, nevrosteniya, g'ayriadekvant reaksiyalar, giyohvandlik, oila terapiyasi.

Ma'lumki, deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzulishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin.

Albatta, ijtimoiy me'yorlik va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini chuqurroq tahlil qildilar.

Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi ilk ta'limot Emil Drukgeymning "anomiya" g'oyasi edi. U deviatsiyada suitsid muammosini o'rganib, "O'z joniga qasd qilish" asarini yozdi. Undan tashqari R. Merton uning "anomiya" g'oyasini rivojlantirib, deviant xulq-atvoriga quyidagicha ta'rif berdi: "Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari va mavjud imkoniyatlarni bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir".

Bugungi kunda deviant xulq-atvor muammosi sotsiologiya, psixologiya, tibbiyot fani sohalarining tadqiqot obyektiga aylangan. Deviant xulq-atvor asosan ijtimoiy muhitda shakllanadi, ijtimoiy muhit normalari asosida tartibga solinadi. Muammoni o'rganishga alohida e'tibor qaratsak, asos me'yor (ijtimoiy me'yor) termini o'zagini tashkil etadi. Me'yor xulq-atvorni tartibga soladi va ijtimoiy nazoratni amalga oshiradi. Hozirda yoshlar tarbiyasida tartib va me'yorni saqlash muhim vazifa va bunda birinchi nazorat instituti - oiladir.

Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari psixologiyada "deviantlik holati" undan tug'uluvchi xulq-atvorni "deviant xulq-atvor" deb nomlanadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Deviant xulq-atvor- jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisadir. Jamiyatga zid bo'lgan og'ishlarga odamlar orasidagi shaxsning g'arazli, g'arazli-zo'ravon va tajavuzkor-zo'ravonlik qarashlari yoki jinoiy axloqning boshqa turlariga xos bo'lgan kriminal shakldagi jamiyatda qabul qilingan o'zaro munosabatlar qoidalarini ongli ravishda buzishga qaratilgan qilmishi va harakatlarini kiritamiz.

Xususan, yolg'onchilik, o'g'irlik, dangasalik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab holatlar deviant xulq atvor xususiyatlari hisoblablanadi.

O'g'rilik-o'zganing mulkini yashirin tarzda talon-taroj qilish. Odam o'ldirish-boshqa odamga nisbatan qasddan o'lim yetkazish. Bezorilik-fuqarolarga zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish yo'li bilan qo'rqitish.

Odatda deviatsiya ko'proq o'spirinlik davrida yuzaga keladi. Chunki bu davr yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Ko'roq deviant holati ham yoshlarda shu davridan boshlanishi mumkin. Agar o'smir ko'proq ko'cha muhitiga, mushtlashuvlarga, roker yoki haddan tashqari sevuvchilarga tushib qolsa, unda u salbiy manfaatlar va kattalarning xatti-harakatlariga bo'lgan istakni shakllantiradi. Bu erta jinsiy tajriba, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishni talab qiladi. Shu tariqa yoshlarda deviant og'ish boshlanadi. Deviatsiya ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biridir. Voyaga yetmagan yoshlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar:

- irsiy xususiyatlar;
- aqliy rivojlanishning buzulishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar;
- oilaviy nizolar, tinch muhitning yo'qligi, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi;
- bolada psixopatologiya yoki xarakter aksetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi omillarda namoyon bo'ladi.

Deviant xulq-atvorli insonlar nafaqat o'z hayotiga zarar yetkazadi, balki atrof-muhitdagi insonlarning turmushiga, tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday shaxslar birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh urug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan, asabiy, jahldor, mehrsiz bo'lishadi va atrofdagilarning hayotiga xavf tug'diraydigan shaxslarga aylanadi. Shu bilan birga uning oqibatlari eng oddiy, jamiyat tomonidan qoralanishdan tortib, hayotdan mahrum bo'lishgacha bo'lishi mumkin. Bularning barchasi deviant xulq-atvor turiga, odamning normal hayotga qaytishga qodirligi va xohishiga bog'liq. Bu mavjud tartibning noturg'unligi, moddiy va ma'naviy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik va bosim o'tkazishi mumkin. Deviant xulqning turli ko'rinishi va xususiyatlari mavjud.

Xususan u ijtimoiy moslashmaganlikning turli ko'rinishlari bilan birga boradi. Ushbu axloq kasallik yoki o'limga olib kelishi shart emas, biroq u tabiiy suratda ijtimoiy moslashmaganlik holatini uyg'otadi yoki kuchaytiradi. Og'ishgan xulqning yana bir belgisi



uning ifodalangan individual va yosh-jinsiy o'ziga xosligini aytish mumkin. Og'ishgan xulq avvalo, shaxsning jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. Deviant xulqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha ko'zga tashlanadi.

Shu tariqa jamiyatda yoshlar tarbiyasi va hayotiga zarar yetkazib kelayotgan deviansiyani bartaraf etish yo'llari turli fanlarda ko'rib chiqilayotgan muammodir. Farzand avvalo, oilada voyaga yetar ekan uning tarbiyasi buzulishiga oilaviy muhit dastlabki sababchi bo'lishi mumkin. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi muammolar deviant xatti-harakatlarning sababiga aylanadi. Ba'zida bitta onaning yoki otaning g'amxo'rligi va nazorati yetarli bo'lmaydi va ota-onalardan birining o'limi, ajralishlar deviansiyaga olib kelishi mumkin. Undan tashqari bolalarni atrofidagi do'stlariga, ommaviy axborot vositalaridan foydalanayotganda ham nazorat bo'lishi kerak, albatta. Deviant xulqli bolalar bilan ishlashda psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishning bir qancha samarali usullari mavjud. Xususan guruh terapiyasi-ijtimoiy muhitda bolalarni rivojlantirish, atrofda gilar bilan munosabatlarini yaxshilash, jizzakilik, asabiylikni oldini olish. Oila terapiyasi-bolani oilasi bilan birgalikda ishlash orqali oilaviy munosabatlarni yaxshilash, unga vaqt ajratish, mehr berish va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, agar jamiyatda deviant xulq-atvorning oldini olish ijtimoiy mavqeidan, dinidan, ma'lumot darajasi va boshqa omillardan qat'iy nazar aholining barcha qatlamlarini qamrab olsa va oilada farzand tarbiyasiga e'tibor kuchli bo'lsa, maktablarda ta'lim-tarbiya yaxshi bo'lsa deviansiyaga og'ish holatlari kuzatilmaydi. Shu qatorda deviansiyaga qarshi qo'llanilgan ijtimoiy, psixologik ko'rsatmalar bolalarning ijtimoiy muhitini yaxshilash, oilaviy munosabatlarini mustahkamlash, unda tartib va tinchlik o'rnatish, psixologik yordam ko'rsatish va ta'lim-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Bolalarni bo'sh vaqtini samarasiz o'tkazmaslik, sport yoki boshqa jismoniy faoliyatlarga jalb qilish orqali ularning energiyasini sog'lom yo'llar bilan chiqarish, ularga psixologik yordam berish, huquqlarini himoya qilish, sog'lom muhit bilan ta'minlash muhim chora-tadbirlardan biridir. Bu chora-tadbirlar bolalar o'rtasidagi deviant xulq-atvorni kamaytirish va oldini olishda samarali yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L.YA.Olimov, O.R.Avezov, E.S.Eshov-deviant xulq-atvor psixologiyasi. Buxoro-2017.
2. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION-Deviant xulqli bolalarning psixologik xususiyatlari. O'.Davlatova.2023.
3. L.YA.Olimov, A.M.Nazarov-xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Toshkent "Tafakkur avlodi" 2020.
4. I.M.Hakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Toshkent-2014.
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari jurnali. T.Babanova. Bolalardagi deviant xulq-atvorning psixologik muammolarini o'rganish. 2024.
6. F.Salimboyeva-deviant xulqli bolalar bilan ishlash usullari va ularni oldini olish choralari. "PEDAGOGS" international research journal. 2025.